



STRUCTURAL-SEMANTIC TYPES AND STYLISTIC FEATURES OF THE COMPOUND SENTENCE WITH MEASURE-DEGREE CLAUSE

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10142718>

Umirzakov Kadirjon Toyirjonovich

qadiriy777@gmail.com

Teacher of the Andijan State Institute of Foreign Languages, Ph.D., Ph.D

The article interprets the structural-semantic types and stylistic features of the compound sentence with measure-degree clause.

Key words

compound sentence with measure-degree clause, pure relation; mixed relationship; functional style; syncretic conjunction

O'LCHOV-DARAJA ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPNING STRUKTURAL- SEMANTIK TURLARI VA STILISTIK XUSUSIYATLARI

Umirzakov Qodirjon Toyirjonovich

qodiriy777@gmail.com

Andijon davlat chet tillari instituti o'qituvchisi, f.f.f.d., PhD

MAQOLADA

o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gapning struktural-semantik turlari va stilistik xususiyatlari talqin qilinadi.

Kalit so'zlar

o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gap, sof munosabat; aralash munosabat; funksional stil; sinkretik bog'lovchi

Ingliz va o'zbek tillaridagi o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplarning funksional-pragmatik xususiyatlarini qiyosiy-tipologik o'rganish nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Bunday tadqiqotlar nazariy jihatdan o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplarning tarkibiy-mazmuniy (struktural-semantik) tasnifi, stilistik xususiyatlari, sintaktik sinonimiya va omonimiyalari, ellipsis va parsellyatsiya hodisalari bilan bog'liq bir qator muammolarni, amaliy jihatdan esa u yoki bu chet tilni o'qitish jarayonida ona tili ta'sirida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan interferensiyalarning oldini olish yoki bartaraf qilish uchun muhim tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.



O'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplarning tarkibiy-mazmuniy (struktural-semantik) jihatlarini yoritish mazkur birliklarni tarkibiy-mazmuniy turlarga tasnif qilishni taqozo etadi. Mazkur masalani ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida ko'rib chiqish shuni ko'rsatdiki, garchand tilshunoslikda qo'shma gaplar tadqiqida ancha vaqtdan buyon "struktural-semantik tur" tushunchasi bilan ish ko'rilsa-da, o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gapning tarkibiy-mazmuniy tasnifi hanuzgacha hech bir tilda amalga oshirilmagan.

Ingliz va o'zbek tillaridagi o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gapning tarkibiy-mazmuniy turlarini o'rganish shuni aniqlash imkonini berdiki, o'lchov-daraja munosabati sof holda yoki qo'shimcha ma'no nozikliklari bilan ifodalanishiga ko'ra ingliz va o'zbek tillaridagi o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplarni ikki asosiy tarkibiy-mazmuniy turlarga ajratish mumkin: 1) sof o'lchov-daraja munosabatli ergash gapli qo'shma gap; 2) aralash munosabatli ergash gapli qo'shma gap.

Sof o'lchov-daraja munosabatli ergash gapli qo'shma gapda o'lchov-daraja munosabati boshqa qo'shimcha ma'no munosabatlari bilan birga ifodalanmaydi. Bunday o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplarga ingliz va o'zbek tillarida ergash gap bosh gapga "By how much..by so much", "By how much ..., by that much", "By what amount..., on that account", "Qancha (qanchalik)..., shuncha (shunchalik)", "Nechta..., shuncha", "Nechog'lik..., shu darajada", "Nechog'lik..., shu qadar", "Naqadar..., shu qadar", "Qanday..., shunday" bog'lovchilari bilan bog'lanadigan o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplar kiradi.

1) ingliz tilida: *By how much we are more, by so much we shall be merrier*³⁶.

*By what amount you sow, on that account you reap*³⁷.

*By how much value you provide to others, by that much people will respect you*³⁸.

2) o'zbek tilida:

1. Aflotunlar chog'ida Afina, Rumo saltanatida Rumo, abbosiylar xulofotida Bag'dod qancha taraqqiy qilgan bo'lsa, Temur va Ulug'beklar zamonida Samarqand shuncha taraqqiy qilgan edi. (Fitrat A. Yurt qayg'usi, 201)

2. Biz xotin-kizlar nechta bo'lsak, Jo'raxon opaning jonlari ham shuncha. (Muxtor A. Opa-singillar, 37)

3. Asarning mavzusi qanchalik xalq hayotiga yaqin bo'lsa, milliy kalorit ham shunchalik yaqqol seziladi. (Abduqaxxor Iminov. Oltinsarob, 37)

4. Bu kunlarda Sotimboy naqadar xursand bo'lsa, Nurulloboy shu qadar xafa edi. (Komil Avaz. Tong erkini, 184)

³⁶ Dikken Marcel den. Comparative Correlatives Comparatively // Linguistic Inquiry, 2005. Volume 36, Number 4. – P. 503.

³⁷ Dikken Marcel den. Кўрсатилган манба. – P. 503.

³⁸ Dikken Marcel den. Кўрсатилган манба. – P. 503.



5. Vatanga *nechog'lik* ko'p paxta yetkazib bersak, xalqimiz farovonligi *shu qadar* tez ortadi. (Komil Avaz. Tong erkini, 71)

6. Yaqinginda Satimboyni Chalish pristanida Sheroziy, Hojixon, Komiljon Otaniyozovlar aytgan qo'shiq nolalari ostida *qanday* ishonch bilan kuzatgan bo'lsa, bugun Nurullaboyga yig'ilgan butun Xiva uning yon-atrofida uzoq-yaqin kishloklardan kelgan olomon bilan *shunday* mag'rurona kutib oldi. (Komil Avaz. Tong erkini, 184)

Aralash munosabatli o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplarga xos xususiyat shundaki, ularda o'lchov-daraja munosabati bilan birga bosh va ergash gapni bog'lovchi vositalarning sinkretikligi (ko'p ma'noligi) bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha (shart, payt, natija) sintaktik munosabatlar ham mujassam bo'ladi.

Qiyoslanayotgan tillarda aralash munosabatli ergash gapli qo'shma gaplarning quyidagi turlari aniqlandi:

1. Ingliz tilida:

a) O'lchov-daraja va shart ergash gapli qo'shma gap.

b) O'lchov-daraja va payt ergash gapli qo'shma gap.

Birinchi turga "**the...**, **the...**" sinkretik bog'lovchisi bilan bog'langan ergash gapli qo'shma gaplar kiradi. Bunday gaplarda "**The...**, **the...**" sinkretik bog'lovchisi o'lchov-daraja va shart munosabatlarini ifodalaydi.

*The more he asks, the more I give him*³⁹.

a) *By how much he asks, by so much I give him* (o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gap).

b) *If he raises his demands, I shall give him more* (shart ergash gapli qo'shma gap).

Ikkinchi turga "**as**" sinkretik bog'lovchisi bilan bog'langan ergash gapli qo'shma gaplar kiradi. Bunday gaplarda "**as**" bog'lovchisi o'lchov-daraja va payt munosabatlarini ifodalaydi. Ergash gapli qo'shma gapda o'lchov-daraja munosabati ifodalanganda ergash gap o'zbek tiliga **-sari**, **-sayin** ko'makchili jumla bilan, rus tiliga esa o'lchov-daraja ergash gap bilan tarjima qilinadi.

As the work went on we got to know one another better.

- *The more we worked, the more we knew one another* (o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gap).

- *Ish davom etgan sari, biz bir-birlarimiz bilan yaqindan tanisha bordik.*

- *Чем больше продолжалась работа, тем ближе мы познакомились друг с другом (По мере того, как работа продолжалась, мы ближе познакомились друг с другом.)*

Ergash gapli qo'shma gapda esa payt munosabati ifodalanganda ergash gap o'zbek va rus tillariga payt holi vazifasidagi jumla bilan tarjima qilinadi.

³⁹ Dikken Marcel den. Comparative Correlatives Comparatively // Linguistic Inquiry, 2005. Volume 36, Number 4. – P. 517.



- *As we went on working we knew one another better* (payt ergash gapli qo'shma gap).

Ish jarayonida biz bir-birlarimiz bilan yaqindan tanishishga muvaffaq bo'ldik.

В процессе работы мы ближе познакомились друг с другом.

2. O'zbek tilida.

a) o'lchov-daraja va shart ergash gapli qo'shma gap.

b) o'lchov-daraja va natija ergash gapli qo'shma gap.

Birinchi turga "-sa" sinkretik affiksi bilan bog'langan ergash gapli qo'shma gaplar kiradi. Bunday gaplarda "-sa" sinkretik affiksi o'lchov-daraja va shart munosabatini ifodalaydi.

Odamlar qanchalik ilmi bo'lsa, dunyo kamchiligi shunchalik ozayaveradi. (Qobil Mirzo. Tug'ilmagan bola, 16)

a) Ilmi odamlar qanchalik ko'p bo'lsa, dunyo shunchalik obod bo'ladi. (o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gap)

b) Agar odamlar ilmi bo'lsa, dunyoda yaxshilik ko'payadi (shart ergash gapli qo'shma gap).

Ikkinchi turga "-ki" sinkretik bog'lovchisi bilan bog'langan ergash gapli qo'shma gaplar kiradi. Bunday gaplarda "-ki" sinkretik affiksi o'lchov-daraja va natija munosabatini ifodalaydi.

*Hali Onaxonning bilmaganlari shu qadar ko'p ediki, so'rab oxiriga yetolmasday ko'rindi*⁴⁰.

a) *Onaxon qancha ko'p so'rasa, unga shuncha oz bilgandek tuyuldi* (o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gap).

b) *Onaxonning savollari shunchalik ko'p ediki, so'rab tugata olmadi* (natija ergash gapli qo'shma gap).

O'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gapning funksional xususiyatlarini yoritish mazkur til birligining stilistik xususiyatlarini o'rganishni ham taqozo etadi. Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatdiki, o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gap neytral stilistik xususiyatga ega. O'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gap neytral stilistik xususiyatga ega bo'lsa-da, o'lchov-daraja ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalarning ishlatilishi bilan bog'liq holda barcha funksional stillarda bir xil qo'llanilmaydi.

Funksional nuqtai nazardan olganda qiyoslanayotgan ingliz va o'zbek tillaridagi o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gapning turli stillarda qo'llanilishi o'lchov-daraja munosabatini ifodalanishdagi semantik ma'no o'zgaliklarini (modallik, zamon, mayl) batafsilroq yoritib berishga bo'lgan kommunikativ zaruriyat bilan belgilanadi.

⁴⁰ Нурмонов А., Махмудов Н. ва бошқ. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – 290 б.

Ingliz va o'zbek tillaridagi o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gapning stilistik xususiyatlarini o'rganish mazkur sintaktik birlikning tarkibiy-mazmuniy turlaridan qaysi biri neytral stilistik xususiyatga ega, ya'ni barcha stillarda ishlatiladi-yu, kaysi birlari faqatgina u yoki bu stilda ishlatilishini aniqlash imkonini beradi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gap tarkibiy-mazmuniy turlarining stilistik xususiyatlarini aniqlash uchun qiyoslanayotgan tillar materiallari beshta funksional stillarda tahlil qilindi: 1) badiiy stil; 2) og'zaki stil; 3) poetik stil; 4) publitsistik stil; 5) ilmiy stil.

Tadqiqot jarayonida ingliz va o'zbek tillarida har bir funksional stilda 500 sahifadan matn (jami 4000 sahifa matn) va 100 sahifadan gazeta materiallari tahlil qilindi. Tahlil natijalarini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

3.1-jadval

Ingliz va o'zbek tillaridagi o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gap tarkibiy-mazmuniy turlarining stilistik xususiyatlari

Tillar		O'lchov-daraja ergash gap turlari	Funksional stillar				
			Badiiy	Og'zaki	Poetik	Publitsistik	Ilmiy
Ingliz	.	The..., the	57	63	16	13	28
	.	As	27	14	7	-	-
	.	By how much..., by so much...	19	11	-	-	7
	.	By how much ..., by that much...	8	-	-	-	-
	.	By what amount..., on that account ...	-	12	-	-	-
	.						
	6.	In proportion as..., in that proportion	-	6	-	-	3



O'zbek	.	qancha(-lik, -lar)...sa,	51	39	24	11	17
	.	shuncha(-lik, -lar)...					
	.	qanday...sa,	24	16	9	8	12
	.	shunday (o'shanday)...					
	.	nechta(necha). ..sa, shuncha...	16	19	-	-	-
	.	naqadar.. .sa,	12	16	-	-	-
	.	shu qadar...					
	.	nechog'li...sa, shunchalik...	8	13	-	-	-
	.	nechog'lik...sa, shu qadar...	13	21	-	-	9
	.	qay darajada..., shu darajada ...	7	12	-	5	-

Jadvaldan ko'rinib turganidek, ingliz tilida komponentlari "**The..., the...**", o'zbek tilida esa "**qancha(-lik,-lar)...sa**, (u)**shuncha(lik)...**", "**qanday...sa**, **shunday(o'shanday)...**", "**nechta(necha)...sa**, **shuncha...**" bog'lovchi so'zlari yordamida bog'langan o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplar eng ko'p qo'llaniladi. Bunday qo'shma gaplar yuqorida keltirilgan funksional stillarning deyarli barchasida qo'llaniladi.

O'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gapning u yoki bu turini ayrim stillarda mavjud emasligini shu bilan izohlash mumkinki, o'lchov-daraja munosabati ushbu stillarda o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplarning o'rnini bosa oladigan sodda yoki murakkablashgan sodda gaplar yordamida ifodalanadi.

Izlanishlarimiz shunday xulosaga kelish imkonini berdiki, badiiy adabiyotda o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gapning u yoki bu turining qo'llanilishi badiiy asar muallifining stiliga ham bog'liq. Masalan, ingliz tilida komponentlari "**The..., the...**" bog'lovchisi yordamida bog'lanadigan o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplar S. Moem, J. Golsuorsi, J. London, A. Kristi, J. Selinjer, A.Sillitou asarlarida, komponentlari "as" bog'lovchisi yordamida bog'lanadigan o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplar E.Xeminguey va T.Drayzer asarlarida ko'p uchraydi.



O'zbek tilida komponentlari bog'lovchi so'zlar yordamida bog'lanadigan o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplarni I. Karimov, E.Voxidov, A.Muxtor, Komil Avaz, Qobil Mirzo, I. G'ofurov, N. Qobul, Q.Kenja kabi mualliflarning asarlarida uchratish mumkin.

Qiyoslanayotgan ingliz va o'zbek tillaridagi o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplar tarkibiy-mazmuniy (struktural-semantik) turlarining stilistik xususiyatlarini aniqlash ularni turli nutq vaziyatlarida to'g'ri qo'llash va bir tildan ikkinchi tilga asliymonand adekvat tarjima qilish imkoniyatini beradi.